

“QOSH” KONSEPTINING IZOHLI LUG'ATLARDAGI TALQINI*Safarniyozova Zarnigor Jurabek qizi**Sharof Rashidov nomidagi**Samarqand davlat universiteti**Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati**Instituti 4 – bosqich 401 – guruh talabasi ,**e-mail: zsafarniyozova@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada “qosh” konseptining o‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda berilgan talqinlari hamda uning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida “qosh” leksemasining asosiy va ko‘chma ma’nolari, ularning qo‘llanish doirasi hamda badiiy matnlardagi ifodalanish holatlari misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, mazkur konseptning somatik birlik sifatidagi o‘rni bilan birga, uning shakliy va vazifaviy o‘xshashlik asosida yuzaga kelgan ko‘p qirrali ma’no tizimi ochib beriladi. Natijada, “qosh” konsepti o‘zbek lisoniy manzarasida serma’no va murakkab tuzilishga ega birlik sifatida baholanadi.

Аннотация: В данной статье анализируются толкования концепта «бровь» в узбекских толковых словарях, а также его семантические особенности. В ходе исследования рассматриваются основные и переносные значения лексемы «qosh», сфера их употребления и особенности функционирования в художественных текстах на основе примеров. Кроме того, раскрывается роль данного концепта как соматической единицы, а также его многозначная структура, сформированная на основе формального и функционального сходства. В результате концепт «qosh» оценивается как многогранная и сложная единица в узбекской языковой картине мира.

Abstract: This article analyzes the interpretations of the concept “qosh” (eyebrow) in Uzbek explanatory dictionaries and examines its semantic features. The study explores both the primary and figurative meanings of the lexeme “qosh,” its usage scope, and its representation in literary texts based on examples. Furthermore, the paper reveals the role of this concept as a somatic unit and highlights its complex semantic structure formed through formal and functional similarities. As a result, the concept “qosh” is evaluated as a multifaceted and structurally complex unit in the Uzbek linguistic worldview.

Kalit so‘zlar: qosh konsepti, izohli lug‘at, semantik ma’no, ko‘chma ma’no, somatik birlik, lisoniy manzara, leksema, badiiy matn, ma’no tuzilishi, til birliklari.

Kirish: Til birliklarining ma’no mazmunini ochib berishda hamda ularning semantik tuzilishini o‘rganishda izohli lug‘atlar muhim manba hisoblanadi. Bunday

lug'atlarda so'zlarning asosiy va ko'chma ma'nolari, ularning qo'llanish xususiyatlari va funksional imkoniyatlari keng yoritiladi. Shu jihatdan qaraganda, o'zbek tilidagi ko'p ma'noli birliklardan biri bo'lgan "qosh" konsepti alohida e'tiborga loyiqdir.

Asosiy qism:

Til birliklarining ma'no mazmunini bayon qilishda, ularning mazmuniy tuzilishini o'rganishda izohli lug'atlar asosiy o'rin tutadi. Ularda so'zlarning nafaqat mazmuniy tuzilishi, balki har bir so'zning turli xil ma'nolari, shu jumladan ko'chma ma'nolari va qo'llanish doirasi ham keng ko'lamda yoritib beriladi. Mana shunday ko'p qirrali va ko'p ma'noli birliklardan biri bu – "qosh" konseptidir. "Qosh" konseptining izohli lug'atlarda turlicha ma'nolari mavjud.

QOSH 1 Qovoq tepasidagi yoysimon tukli qatlam. Quyuc qosh. Payvasta qosh. Qosh(ni) bo'yamoq. Qosh(ni) termoq. Qosh(ni) chimirmoq. Qosh(ni) qoqmoq.¹

— Abdulla Qahhor "Sarob" romanida ham qosh so'zi bir necha o'rinda "Qovoq tepasidagi yoysimon qatlam" ma'nosida keladi. Masalan:

— O'rta bo'yli, yo'g'on gavdali, ko'k movut avrali po'stin kiygan, qirq besh yoshlardagi bir kishi kirdi. Uning **mo'ylovga o'xshagan qoshlari** ko'zining ustiga tushib turar, kichkina do'ppisi qoplay olmagan tepakal boshi hozirgina pardozlangan sariq etikning tumshug'iday yaltirar edi.²

— Kamalxonov bu so'zni kulgi uchun aytilgan gumon qilgan bo'lsa kerak, o'zini qattiq kulgiga chog'lagan edi. Sulaymonovning kulmaganini ko'rib, o'zini jiddiy ko'rsatish uchun **qoshlarini chimirdi**, ustki labini so'ra boshladi.³

— Muharrir **qoshini kerib**, ostki labini tishladi. Kenjani shuncha so'kish xonasi keldiki, hatto Yoqubjon ham tek turolmay do'ng'illadi.⁴

Bundan tashqari yana bir qancha asarlarda "Qosh" konseptining shu ma'noda qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin.

— Xizmat yo'q, shunchaki biroz gaplashaman deb kelgan edim....

Mariya Vasilyevna **qoshlarini baland ko'tarib**, hayratomuz, sho'xchan tikildi.⁵

— Nima qilaylik, ayting. Paxtaning narxini tushirasizmi, planni kamaytirasizmi, shamolni to'xtatasizmi? Yoki sovxozimiz hududidan bir xazina topib berasizmi?

— Bularning hammasini ham o'ylab ko'rish kerak, – dedi Orif aka. Kulib turgan Ziyoxonovning birdan **qoshi chimirildi**.⁶

Yigit ma'yus kuldi. Uning yuzi oriq, rangsiz, burni qirra, chuqur botgan kata ko'zlarining oqi allaqanday moviy edi.

— Nahotki ertakdagi shahzoda menday jo'n bo'lsa?

¹ Madvaliyev A., Xudayberganova D. (tahriri ostida). O'zbek tilining izohli lug'ati: 4 jildli. –Toshkent, 2023.-B.255-256.

² Abdulla Qahhor.Sarob.1 jild.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1987.-B.79.

³ O'sha asar.-B.156.

⁴ O'sha asar.-B.124.

⁵ Asqad Muxtor.Chinor .-Toshkent:. Yoshlar nashriyot uyi, 2018.-B.62

⁶ O'sha asar.-B.73.

— Siz bu yerlik emassiz.

— Topdingiz, Xorazmdan keldim. Biron ish topilsa kirmoqchiman

Komila qiyg‘och **qoshini uchirib** yelka qisdi.⁷

— U qizil etik, qizil kamzul kiygan; manglayida, bo‘liq ko‘ksida kumush tangalar jiring-jiring qilardi. Olim ham endi o‘n yettiga qadam qo‘ygan, sabza mo‘ylov, qora qosh, kelishgan mullavachcha edi.⁸

Mazkur leksema o‘z asosiy ma‘nosidan tashqari bir necha ko‘chma ma‘nolarda ham keng qo‘llaniladi. Jumladan, ayrim narsa-predmetlarning turtib chiqqan joyi, narsalarning old qismi ma‘nolarini ifodalash uchun ham qo‘llanadi.

Qosh 2 Ba‘zi narsalarning old qismi, turtib chiqqan joyi. Ayvonning qoshi.

— Xizmatkorlar qo‘ltig‘imdan ko‘tarib, otga mingashtirmoqchi bo‘lganlarida, oyog‘im uzangidan toyib, burnim egarning qoshiga tegib ketdi. G‘.G‘ulom, Tirilgan murda.⁹

“Qosh” konseptining mazkur ma‘noda qo‘llanishi badiiy asarlarda quyidagicha ifodalangan:

— **Egar qoshiga** tuy solib olmish jarchi guzarma-guzar ot o‘ynatdi. Xo‘jasoat qishlo g‘i ahlini tuyga chorladi.¹⁰

Xiyol o‘tmadi. Tuy Bekasi otda eshikma-eshik yurdi. Xonadonlarni alohida-alohida aytdi.

Xonadon bekalari:

— Quruq ketmang,- deya **egar qoshiga** tun ildi. Tuy bekasi yuziga fотиha tortdi.¹¹

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan ma‘nolaridan tashqari, qosh leksemasining yana bir necha semantik ma‘nolari ham mavjud. Jumladan, quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

Qosh 3 Uzuk, isirg‘a kabi buyumlarga o‘yib solingan yoysimon gul – bezak. Kanizlarning qo‘llarida qoshlari brilliant oltin bilaguzuklar, bo‘yinlarida zebigardonlar. J.Sharipov, Xorazm.

Qosh 4 (3-sh. egalik va makon kelishiklari shaklida – qoshiga, qoshida, qoshidan) ko‘m. vzf. Makon munosabatlarini bildiradi. Hech kim rahm aylamas qonli yoshimga, Shakar aka, kelgin mening qoshimga. “Shirin bilan Shakar”. Qoshimdan noz-istig‘no bilan ketding, yomon bo‘ldi, Qoshimga noz-istig‘no bilan kelsang, yomon bo‘lmas. J.Kamol. Uch qizim bor, bir o‘g‘lim bor qoshimda, Baxt-u davlat keldi yetmish yoshimda. Habibiy.¹²

⁷ O‘sha asar.-B.161.

⁸ O‘sha asar.-B.198.

⁹ Madvaliyev A., Xudayberganova D. (tahriri ostida). O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 4 jildli. –Toshkent, 2023.-B.255.

¹⁰ Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi.- Toshkent: Ziyo nashr, 2020.(3–B.28).-B.1.

¹¹ O‘sha asar.-B.1

¹² Madvaliyev A., Xudayberganova D. (tahriri ostida). O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 4-jildli. –Toshkent, 2023.-B.255-256.

Qosh leksemasining “yon, yaqin, yonida” ma’nolarining ifodalanishini quyidagi misollar yordamida ko‘rishimiz mumkin:

— Yo‘q, Ochil buva chinorning yonib ketishiga ishonmaydi. Yo ishonmay, yo lovillab o‘t oladigan bo‘lsa, qadrtoni bilan birga yonib ketish niyatida, o‘sha kechasi o‘zi yolg‘iz **chinor qoshiga** ketadi.¹³

Chorak soatlardan keyin yana Orifning ovozi keldi.

— Dada!

Ochil buva kirdi, belbog‘iga ikki qo‘lini tirab **o‘g‘lining qoshiga** keldi.¹⁴

Samarqand xo‘jaliklaridan birida men bir voqea bilan tanishgan edim. **Xo‘jalik boshqaruv qoshida** ilmiy konsultant sifatida iqtisodiy kengash tuzilibdi¹⁵

— Ermat polvon, ko‘p shalpaymang, dadil bo‘ling! Shukur yiqitdim, deya, **bosh bakovul qoshiga** o‘tirdi. Ermat davra o‘rtasida choponida ilashmish somonlarni qoqdi. Shukurga, keyin, Bo‘ri polvonga angrayib qaradi.¹⁶

Yuqoridagi gaplarning barchasida qosh so‘zi “oldiga, yonida, yoniga” kabi ma’nolarda qo‘llangan.

Izohli lug‘atlarda “Qosh” konsepti oddiy tana a‘zosi ma’nosini ifodalovchi semantik birlik bo‘libgina qolmay, balki ufqning qorong‘ulashishi ya’ni kech kirish jarayonini ifodalovchi “Qosh qoraydi” kabi barqaror iboralarni ham aks ettiruvchi muhim birliklardan biridir.

Qosh qoraydi Kech kirdi, oqshom qorong‘isi tusha boshladi. Qosh qorayib, odam odamni tanimaydigan bo‘lib qoldi. Oydin, Chaqaloqqa chakmoncha. Hirot aholisi qosh qorayishi bilan ko‘cha eshiklarini ichidan zanjirlab olar edilar. M.Osim, Zulmat ichra nur.¹⁷

Xususan, “Qosh qoraydi” iborasini quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

— **Qosh qorayganda** darvozadan yugurgudek bo‘lib dadam kirib keldi. Hamma gapni ko‘chadan eshitgan shekilli, to‘ppa-to‘g‘ri uyga kirdi-yu qo‘shog‘iz miltig‘ini ko‘tarib chiqdi.¹⁸

Hasanali chiqdi. Qosh qorayib qorong‘u tushayoz-g‘an edi. Havo bulut, achchig‘, sovuq yel to‘rt tomong‘a yugurar, onda-sonda qor uchqunlarini quvlab ziriqtirar edi.¹⁹

— Ular uzoqlashishi bilan qosh qorayganda sizni borib topdim...²⁰

— Astoydil qosh qorayganda Saragulning badanini titroq chulg‘adi.²¹

¹³ Asqad Muxtor. Chinor.-Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.-B.5.

¹⁴ O‘sha asar.-B.123.

¹⁵ O‘sha asar.-B.73.

¹⁶ Tog‘ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi.-B.5.

¹⁷ Madvaliyev A., Xudayberganova D. (tahriri ostida). O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 4 jildli. –Toshkent, 2023.-B.256.

¹⁸ O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.-B.225.

¹⁹ Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar.-B.21.

²⁰ Asqad Muxtor. Chinor.-Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.-B.28.

²¹ O‘sha asar.-B.43.

— Qosh qorayar, sovuq tuman quyulashar, odam to‘shalgan maydon ustida qo‘lansa hovur ko‘tarilar, onda-sonda yilt etgan inson chehrasi Jelemo‘ylovning imosi bilan shamdek o‘char edi.²²

— Qosh qorayganda qishloq sho‘rosining orqasida cho‘loq qorovul Qurbonalining o‘ligini topishdi.²³

Keltirilgan ushbu misollardan ham ko‘rinadiki, qosh leksemasining kun botishi bilan aloqador ko‘chma ma’nosidan ustalik bilan foydalanilgan.

O‘zbek tili izohli lug‘atlari va badiiy matnlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek lisoniy manzarasida “qosh” konsepti serqirra va serma’no birliklardan biridir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, milliy lisoniy olam manzarasida qosh konsepti nafaqat somatik (inson ta’na a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan til birligi), balki murakkab tuzilishga ega bo‘lgan ko‘p qirrali tushuncha hamdir. Avvalo ushbu konseptning markazida uning inson tana a’zosini anglatuvchi bosh ma’no tursa, uning atrofida shakliy va vazifaviy o‘xshashlikka asoslangan ko‘chma ma’nolar tizimi yuzaga kelgan. Bu esa konseptning obyektiv borliq bilan o‘zaro bog‘liqligini ifodalab, tilning nominativ xususiyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qahhor. *Sarob*. Roman. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. – B. 79.
2. Abdulla Qodiriy. *O‘tkan kunlar*. Roman. – 220 b.
3. Asqad Muxtor. *Chinor*. Roman. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 576 b.
4. Madvaliyev A., Xudayberganova D. (tahriri ostida). *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*: 4 jildli. – Toshkent, 2023. – 824 b.
5. O‘tkir Hoshimov. *Dunyoning ishlari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 340 b.
6. Tog‘ay Murod. *Yulduzlar mangu yonadi*. – Toshkent: Ziyonashr, 2020. – 112 b.

Internet manbalari:

1. www.ziyouz.com internet sayti.
2. www.wikipedia.uz internet sayti.

²² O‘sha asar.-B.131.

²³ O‘sha asar.-B.290.